



**O'ZBEKISTONDA "YASHIL IQTISODIYOT" NI
RIVOJLANTIRISH SALOHIYATIDAN SAMARALI
FOYDALANISH ISTIQBOLLARI VA MINTAQAVIY
XUSUSIYATLARI**

**XALQARO ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYA**

26-aprel 2024-yil

**МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ
ПЕРСПЕКТИВЫ И РЕГИОНАЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ
ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ПОТЕНЦИАЛА
РАЗВИТИЯ «ЗЕЛЕНОЙ ЭКОНОМИКИ» В УЗБЕКИСТАНЕ**

26 апреля 2024 года

**INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL CONFERENCE
PERSPECTIVES AND REGIONAL FEATURES OF THE
EFFECTIVE USE OF THE POTENTIAL OF THE
DEVELOPMENT OF THE "GREEN ECONOMY" IN
UZBEKISTAN**

April 26, 2024

Buxoro

Qulliyev Oxunjon Anvar o'g'li

Buxoro davlat universiteti

iqtisodiyot kafedrasи o'qituvchisi

YASHIL MARKETING KONSEPSIYASIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI VA O'RNI

Yashil marketing konsepsiyasini mahalliy korxonalar faoliyatida qo'llashbo'yicha "O'zbekiston-2030" strategiyasining 51-maqсадда ""Yashil iqtisodiyot"ga o'tish, uning asosi bo'lgan qayta tiklanuvchi energiyadan foydalinish ko'rsatkichlarini keskin oshirish" belgilangan. Mazkur maqsad doirasida 2030 yilgacha erishiladigan maqsadlarning samaradorlik ko'rsatkichlari sifatida sanoatda "yashil sertifikat"lar bozorini rivojlantirish va "ekologik markirovkalash" amaliyotini joriy qilish ko'zdautilgan. Bundan ko'rini turibdiki, oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash sanoatida ham "yashil sertifikat" va "bio", "eko" brendlarni rivojlantirish dolzarb masalalardan hisoblanadi. Bu dolzarblik bevosita "yashil marketing konsepsiysi"ni qo'llash asosida o'z yechimini topadi.

Yashil marketing va yashil mahsulot hamda xizmatlarga bo'lgan talabni o'rganish bo'yicha tadqiqotlar 1980-yillarning boshidan boshlangan. Lekin, yashil marketing bo'yicha asosiy ilmiy tadqiqotlar 1990-2005 yillaroraliq'ida salmoqli bo'lgan. Xorijiy mutaxassislardan Ginsberg J., Bloom P. (2004) to'g'ri yashil marketing strategiyasini tanlash bo'yicha tadqiqotlar olib borgan. Ginsberg J., Bloom P. Tomonidan yashil marketing strategiyasining asosiy yo'naliishlari, yashil marketingning tamoyillari asoslab berilgan Yashil marketing iste'molchiga, ishlab chiqarish resurslariga va atrof-muhitga zarar etkazmaydigan yakuniy mahsulotlarni loyihalash, taqsimlash, narxlash va targ'ib qilish bo'yicha korxonaning strategiyasi hisoblanadi.

Yashil marketingni biznesda qo'llash yanada ijodiy va innovatsion qayta loyihalashni, mahsulotni qayta ishlash, qadoqlash va etkazib berishni o'z ichiga oladi. Yashil marketing konsepsiyasini qo'llash asosida korxona yuqori bozor ulushiga, iste'molchilarning qoniqishiga va iste'molchilarni ushlab turishga erishishi mumkin. Bu esa o'z navbatida, ish bilan ta'minlash, daromad olish va ijtimoiy yuksalishda sezilarli hissa qo'shishi mumkin. Yashil marketingni qabul qilish yashil mahsulotlar, yashil jarayonlar, yashil qadoqlash, yashil yetkazib berish va yashil reklamadan foydalishni o'z ichiga olishi mumkin.

Yashil marketing – bu ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarish va savdosini tashkil etish faoliyatidir. U mahsulotlarni o'zgartirish, ishlab chiqarish jarayonidagi o'zgarishlar, barqaror qadoqlash va reklama o'zgarishlarini o'z ichiga olgan keng ko'lamlı faoliyatdir.

Yashil marketing xususiyatlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- yashil marketing ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarishga yordam beradi;
- yashil mahsulotlar chiqindilarini minimallashtirish va resurslarni to'g'ri rejalahtirishga qaratilgan;
- yashil marketing atrof-muhit barqarorligiga yordam beradi.

Yashil marketingning bir qismi sifatida quyidagi konsepsiylar ajralib turadi:

1. Barqaror rivojlanish konsepsiysi – qayta tiklanadigan tabiiy resurslardan, iste'mol qilish darajasi ularni qayta tiklash tezligidan oshmasa, ulardan ehtiyyotkorlik bilan va yaxshi ishlab chiqilgan foydalinish g'oyasi.

2. Chiqindisiz texnologiyalar konsepsiysi chiqindisiz ishlab chiqarish texnologiyalari va ekologik toza mahsulotlarni joriy etishni nazarda tutadi.

3. Yangi turdag'i iste'molchi konsepsiysi sog'liq uchun zararli bo'lishi mumkin bo'lgan, atrof-muhitni sezilarli darajada ifloslantiradigan, nodir materiallardan (resurslardan) foydalananigan, yo'q bo'lib ketish xavfi ostida bo'lgan va hayvonlarga shafqatsizlik bilan bog'liq bo'lgan tovarlarni sotib olishdan ongli ravishda bosh tortadigan iste'molchilarning mavjudligini nazarda tutadi.

4. Ekologik samaradorlik konsepsiysi – korxonalar mahsuloti va faoliyati ekologik ko'rsatkichlar asosida tabaqa lashtiriladi, korxona mahsuloti va ishlab chiqarish jarayonlarining atrof-muhit va jamiyatga ta'siri baholanadi.

5. Atrof-muhit sifati konsepsiysi – atrof-muhitni muhofaza qilishga katta e'tibor berilmoqda, ekologik standartlar joriy etilmoqda.

Bugungi kunda yashil marketing konsepsiysi quyidagi sohalarda keng qo'llanilmoqda:

- 1) Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini yo'lga qo'yishda.
- 2) Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda, dehqonchilik va chorvachilik tarmoqlarida.
- 3) Oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash sanoatida.
- 4) Yengil sanoat va boshqalarda.

Oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash sanoatida yashil marketing konsepsiysi minimal atributlarga ega bo'lgan mahsulotlarni ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.

Bularga quyidagilarni kiritish mumkin:

- biologik parchalanadigan, qayta ishlanadigan va qayta ishlatilishi mumkin bo'lgan xom ashyo va qadoqlash materiallaridan foydalanish;
- atrof-muhitga zarari yetmaydigan ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish;
- pestitsidlardan xoli dehqonchilikni yo'lga qo'yish;
- "bio", "eko" brendlarni yaratish;
- hech qanday kimyoviy moddalardan foydalanmaydigan saqlash usullari va boshqalar.

Yashil marketing iqlim o'zgarishi muammosiga qarshi kurashish uchun amalga oshishi aniq bo'lgan strategiyaga aylanib borayotgani innovatsiya. Barqaror taraqqiyot atamasi 21-asrda asosiy mavzu sifatida paydo bo'lishi bilan yashil marketing uzoq muddatda marketing strategiyasi va amaliyotiga ta'sir qilishda davom etishi kutilmoqda. Korporativ darajada kompaniyalar o'z bozorlarini kengaytirish, bozor ulushini oshirish va dastlabki muvaffaqiyatlari yashil brendlarning ijobjiy imidjidan foydalanish maqsadida global yashil marketing strategiyalarini boshlashlamoqda. Shuningdek, global isish, iqlim o'zgarishi va yashil iste'molchilik tendentsiyasi ekologi-yaga qiziqishni kuchaytirishi va yashil marketing amaliyotlarini uyg'unlashtirishga qaratilgan sa'y-harakatlarni davom ettirishi nazarda tutilgan. Bundan tashqari, yashil marketing konsepsiysi yashil iqtisodiyotga o'tishi kutilayotgan megatrend bo'lib, global iqtisodiy tizimlarning kelajakdag'i ko'rinishini o'zgartirishi kutilmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining atrof-muhit bo'yicha dasturi (UNEP) yashil iqtisodiyotni iqtisodiy o'sish va ijtimoiy tenglikni yaxshilash, shu bilan birga, ekologik xavflarni sezilarli darajada kamaytiruvchi omil sifatida aniqladi. Yashil iqtisodiyot yashil ish o'rinalarini yaratish orqali iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishi va global iqtisodiyotni ekologik muvozanatga yo'naltirishi rejalashtirilgan. Umuman olganda, kelgusi o'n yillikda yashil marketing dolzarb bo'lib qoladi.

Ilmiy adabiyotlarda keltirib o'tilgan holatlarni inobatga olgan holda, ushbu maqola yashil marketing tushun-chasiga bo'lgan ilmiy kategoriyalar va yondashuvchilar ko'rib chiqiladi. Yashil marketing evalyutsion rivojlanishini zamonaviy marketing konsepsiyalari bilan uyg'un holda aks etganligini asoslanaidi. Evolyutsion bosqichlarni nazarda tutgan holda yashil marketing strategiyalarini ishlab chiqish bo'yicha uslubiy yondashuvlar o'rganiladi va o'ziga xos jihatlari aniqlanadi. So'nggi bosqichda esa yashil marketing strategiyalaridan foydalanish bo'yicha ilmiy takliflar beriladi.



Ichki va global darajada yashil marketingdan foydalanish imkoniyatiga ega. Ushbu sohada yashil marketingni qabul qilish yashil mahsulotlar, yashil jarayonlar, yashil qadoqlash, yashil yetkazib berish va yashil reklamadan foydalanishni o'z ichiga oladi. U ta'minot zanjiridagi vositachilarni, oxirgi foydalanuvchilarni, tartibga soluvchi idoralarni va umuman jamiyat ehtiyojini qondirish uchun choratadbirlar ishlab chiqishni o'z ichiga oladi. Ushbu intilishning birinchi va asosiy talabi turli manfaatdor tomonlar, shu jumladan iste'molchilar o'rtasida yashil mahsulotlarning parametrlari va afzallikkleri haqida xabardorlikni yaratishdir. Yashil marketing umuman olganda brend kapitali va korporativ obro'ga katta ta'sir ko'rsatishi mumkin.

ADABIYOTLAR:

1. Abdulloyev, A. (2021). Innovative factors for agriculture development. *Центр Научных Публикаций (Buxdu. Uz)*, 8(8).



2. Abdulloyev, A. (2023). Methodological foundations for evaluating the efficiency of agrocluster management. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz)*, 42(42).
3. Junaydullayevich, A. A., & Rasulovna, Q. N. (2024). SANOAT KORXONALARINING IQTISODIY SALOHIYATINI BAHOLASH USULLARINI ISHLAB CHIQISH. *JOURNAL OF ECONOMY, TOURISM AND SERVICE*, 3(2), 20-24.
4. Fayzilloyevich, O. N. (2020). Characteristics And Main Directions Of The Formation Of Competitive Economy On The Basis Of Innovations. *The American Journal of Interdisciplinary Innovations and Research*, 2(09), 101-106.
5. Qulliyev Oxunjon Anvar o'g'li CHOVACHILIK TARMOG'INI RIVOJLANTIRISH VA AQLLI FERMADA ZAMONAVIY SENSORLI TEXNOLOGIYALARNING RIVOJLANISHI Toshkent davlat iqtisodiyot unuversiteti konferensiyasi 2021-y. 186-192-betlar.
6. Anvar o'g'li, Qulliyev Oxunjon. "Functioning Principles and Main Activities of Multilateral Development Banks." *International Journal of Culture and Modernity* 15 (2022): 83-86.
7. Qulliyev Oxunjon Anvar o'g'li, Bobomurodov Qayimjon Homidovich, O'ZBEKISTONDA KAMBAG'ALLIK DARAJASINI QASQARTIRISH, O'ZBEKISTONDA FANALARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI ISSN: 2181-3302 SJIF:5,963 23-SON 20.10.2023
https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/11154 271-273-betlar
8. Qulliyev Oxunjon Anvar o'g'li, Normurodov Jamshid Baxshibek o`g`li, THE STANDARD OF LIVING OF THE POPULATION AND PROMISING OPPORTUNITIES TO INCREASE IT IN UZBEKISTAN O'ZBEKISTONDA FANALARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI ISSN: 2181-3302 SJIF:5,963 23-SON 20.10.2023
https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/11153 370-374- betlar
9. Qulliyev Oxunjon Anvar o'g'li, Normurodov Jamshid Baxshibek o`g`li, THE STANDARD OF LIVING OF THE POPULATION AND PROMISING OPPORTUNITIES TO INCREASE IT IN UZBEKISTAN European Journal of Business Startups and Open Society| ISSN: 2795-9228 Vol. 3 No. 12 (Dec - 2023): <https://inovatus.es/index.php/ejbsos/article/view/2150/2090> 58-61- betlar

Normurodov Xusan Eshmaxmatovich
O'zMU katta o'qituvchisi
Bahromov Shahzod Fazdiddinovich
O'zMU talabasi.

YASHIL IQTISODIYOT TAMOILLARI TARNSFORMATSIYASI

Kirish. Barqaror rivojlanishning asosiy maqsadlaridan biri tabiat va uning boyliklarini nafaqat bugungi avlodga yetkazish, balkim, kelgusi avlodga ham asrab-avaylagan holda yetkazishdan iborat. Barqaror iqtisodiy o'sishga to'liq erishish kundan-kunga dolzarblik kasb etib boradi. Bu ishlab chiqarishning pasayib ketishi, aholining istemol darajasining kamayishi, muammoli hududlarning yuzaga kelishi bilan bog'liq holda jamiyatning inqirozli vaziyatlarini yuzaga keltirish oqibatida barqaror rivojlanish uchun yangi g'oyalar va tamoyillarni shakllantirish asosida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni asoslarini yaratishni talab qiladi. Jahon iqtisodiyoti va uning ayrim davlatlari, mintaqalari iqtisodiyotining faoliyati samaradorligi hozirgi zamonda yashil iqtisodiyot tamoyillarini keng joriy qilgan holda barqaror iqtisodiy rivojlanish muammolarining echimi bian uzviy bogliq. Iqtisodiyotni ekologiyalashtirish pirovard natijada ekologiya va iqtisodiyotning rivojlanishidagi muammolarning uzviy bog'liqligi namoyon bo'luvchi yangi yo'nalishni, – Yashil iqtisodiyotni yuzaga keltirdi.

Yashil iqtisodiyotni rivojlanirish zamонавиy dunyoda har bir mamlakat va uning mintqalarining samarali rivojlanishida davlat siyosatining uzviy bir qismi bo'lib, davlat boshqaruvining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib qoldi. Har bir mamlakatda uning mintaqalari o'zlarining hozirgi qaysidir rivojlanish bosqichlarida yashil iqtisodiyotning malum bir yo'nalishiga ustunlik beradi. Mamlakat mintaqalarida yashil iqtisodiyotning joriy qilinganlik darajasi uning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini, raqobatbardoshligini ko'rsatib beruvchi omillardan biriga aylandi. Yashil iqtisodiyotning joriy qilinganlik darajasi mintaqalar va mamlakatlarning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish darajasini belgilab berar ekan, albatta har bir mamlakat va uning mintaqasi ishlab chiqarishning ushbu bosqichiga o'tishini talab etadi. Mamlakat va uning mintaqalarida yashil iqtisodiyotni joriy qilish ularning iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy rivojlanishini belgilab berar ekan, har bir mintaqaga va mamlakat ushbu bosqichga tezroq va samarali tarzda o'tishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi.



Qulliyev Oxunjon Anvar o'g'li. Yashil marketing konsepsiyasidan foydalanishning ahamiyati va o'rni. 91	
Normurodov Xusan Eshmaxmatovich, Bahromov Shahzod Faziddinovich. Yashil iqtisodiyot tamoillari	
tarnsformatsiyasi.....	93
G.R.Xidirova. O'zbekiston iqtisodiyotini "yashillashtirish" istiqbollari.....	96
Dilmonov Kudrat Bakhtiyorovich. Regional peculiarities of effective utilization of green economy	
development potential in Uzbekistan	99
Kadirova Maral Matyakubovna, Ozodbek Ilhomov. O'zbekistonda agrobiznesni xorijiy davlatlar	
tajribasi asosida rivojlantirish yo'llari	101
Г.К.Наринбоеva. Особенности развития сельского хозяйства	104
Кайимова З.А. Понятие и сущность «зеленых» финансов.	106
Boltayeva Sh.B. Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda «Yashil iqtisodiyot» ga o'tish mohiyati va	
ahamiyati	109
To'xtayev Maqsud Mansurovich. Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda "yashil" investitsiyalarning	
ahamiyati	110
Сайфуллаева мадина исматовна. ESG критерии внедрения «зеленой» экономики в Узбекистане	111
Ergasheva Aziza Farmonovna. Yashil iqtisodiyot sharoitida humarmandchilik mahsulotlari bozorida	
xizmatlarni samarali tashkil etish yo'llari	117
Eldor Sobirjonov. Efficient management of transportation corridors and its importance for regional	
development in Central Asia	124
2-sho'ba. BIOIQTISODITOT VA SIRKULYAR IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING	
IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI.....	126
Oripov Makhmud Ashurovich. Strategigal Aspects Development of Bioeconomy in the Bukhara	
Region	127
Oripov M.A., Ro'ziyeva G.S. Ways of organic product production and efficient use of biomass in	
agroclusters of Bukhara region.....	132
Dexkanova Nilufar, Galimova Firuza, Sheripbaeva Umida. Эффективное использование биоресурсов:	
Залог устойчивой биоэкономики	136
Sheripbaeva Umida, Dexkanova Nilufar, Galimova Firuza. Tarmoq iqtisodiyotidan bioiqtisodiyotga	
o'tish yo'naliшlari.....	138
Azizbek Khasanov, Eldor Umarov, Rashid Khakimov. Priority directions of bioeconomy development in	
Uzbekistan	140
Rakhmatullaeva Firuza Mubinovna, Khayrilloev Sunnatillo Bakhtiyorovich. Possibilities and prospects of	
development of bioeconomy and circular economy in Uzbekistan	142
Turobova H.R. Bioeconomy - as an important sector of the economy	145
Qodirova Maraljan Matyakubovna. Bioiqtisodiyot va ijtimoiy sohani raqamlashtirishning zamonaviy	
yo'llari.	148
PhD, Аззамов Авазхон Талгатович. Биоэкономика в агропромышленном комплексе.....	149
Kurbanov U.F. Economic assessment of the impact of water resources on the vegetable sector of	
agriculture under changing climate conditions.....	151
3-sho'ba. BARQAROR IQTISODIYOT VA INNOVATSIYALAR: NAZARIYA VA	
AMALIYOT	155
B.N.Navruz-Zoda. Iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning asosiy elementlari.....	156
Obidjon Khamidov, Dilshod Yavmutov and Sardorjon Burkhanov. Analysis of population employment	
and economic growth indicators in the development of macroeconomic indicators of the regions.....	159
Эргашев Р.Х. Мева-сабзавотчилик маҳсулотлари кооперацияси ва унинг самарадорлигини	
баҳолаш кўрсаткичлари таҳлили	163
Дарібекова А.С., Шилец А.Н. «Зеленая экономика» как фактор экономической безопасности и	
устойчивого развития экономики	170
Умаров Абдувахоб Турсунович. Минтақани барқарор ривожлантириш стратегияси	
самарадорлигини ошириш йўналишлари.....	175
Дарібекова А.С., Нарзуллаева Г. С., Шадиева М.Дж. Основные направления УСТОЙЧИВОГО	
развития малого бизнеса и предпринимательства.....	177
Д.Б. Ахмедова. Ўзбекистоннинг барқарор ривожланишида хотин-кизлар жамият равнақига хисса	
қушмоқдалар	181
Kholikova Rukhsora Sanjarovna, Izzatulloev Bakhodir Ubaydullo ugli. The Confluence of Sustainable	
Practices and Economic Advancement: Harmonizing Environmental Conservation with Business	
Imperatives.	182